

## O'zbek tilida "tilak" nutqiy janrining lisoniy xususiyatlari

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna  
[saydur01041973@gmail.com](mailto:saydur01041973@gmail.com)  
Katta o'qituvchi (PhD)  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya.** Til tizimida tilak nutqiy jumlasini o'ziga xos kommunikativ maqsad, matniy kompozitsion tuzilish, uslubiy xilma-xillik, shu bilan birga, adresant, adresat, vaqt, makon, zamon, verbal, noverbal vositalar, lingvistik atributlar kabi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida shakllanadi. Ushbu omillarning mavjudligi bevosita tilakning alohida nutqiy janr sifatidagi lingvistik mavqeyini belgilaydi. O'zbek tilida kishilarning istak-xohishi bilan bog'liq nutqiy tuzilmalarni o'rganish, eng avvalo, o'zbek xalqi nutqiy xulqining milliy xususiyatlarini ochib beradi. Zero, o'zbek tilida mavjud diniy tilaklarda o'zbek xalqining ijobiy tilak bildirishi asosida duogo'yiligi, ibodatgo'yiligi, shu bilan birga, salbiy tilaklarga ham moyilligi va ular orqali milliy xarakter-xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek tilining milliy xususiyatlarini o'zida namoyon qiluvchi tilak nutqiy janrining lingvistik jihatlarini o'rganish masalasi tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi. Maqolada tilak nutqiy janrining o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsiya va uslubiy xususiyatlari; verbal, noverbal vositalari va lingvistik atributlari, nutqiy vaziyatga ko'ra funksional o'zgarishi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijobiy tilaklar, salbiy tilaklar, og'zaki tilaklar, yozma tilaklar. rasmiy uslub, publitsistik uslub, ilmiy uslub, diniy uslub, so'zlashuv uslubi, lingvistik atributlar.

## Лингвистические особенности речевого жанра “пожелание” в узбекском языке

Сайфутдинова Дурдона Пулатжоновна  
[saydur01041973@gmail.com](mailto:saydur01041973@gmail.com)  
Старший преподаватель (PhD)  
Андижанский государственный университет

**Аннотация.** В языковой системе речевое предложение пожелания формируется на основе лингвистических и экстралингвистических факторов, таких как конкретное коммуникативное назначение, композиционная структура текста, стилистическое разнообразие, а также адресант, адресат, время, пространство, время, вербальные, невербальные средства, языковые атрибуты. Наличие этих факторов непосредственно обуславливает языковое положение пожелания как отдельного речевого жанра. Изучение речевых структур, связанных с пожеланиями людей в узбекском языке, прежде всего выявляет национальные особенности речевого поведения узбекского народа. Ведь в существующих в узбекском языке религиозных пожеланиях выражается молитвенность узбекского народа, основанная на выражении позитивных желаний и в то же время склонность к негативным желаниям, а через них выражаются его национальный характер и особенности. С этой точки зрения вопрос изучения лингвистических аспектов речевого жанра тилак, в котором проявляются национальные особенности узбекского языка, показывает актуальность исследования. В статье рассматриваются конкретная речевая цель, состав и стилистические особенности речевого жанра “пожелание”; обсуждаются вербальные, невербальные средства и языковые признаки, особенности функционального изменения в зависимости от речевой ситуации.

**Ключевые слова:** позитивные пожелания, негативные пожелания, устные пожелания, письменные пожелания. официальный стиль, публицистический стиль, научный стиль, религиозный стиль, разговорный стиль, лингвистические признаки.


## Linguistic features of the speech genre “wish” in the Uzbek language

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna  
[saydur01041973@gmail.com](mailto:saydur01041973@gmail.com)  
Senior teacher (PhD)  
Andijan State University

**Annotation.** In the language system, the speech sentence of a wish is formed on the basis of linguistic and extralinguistic factors, such as a specific communicative purpose, compositional structure of the text, stylistic diversity, as well as the addresser, addressee, time, space, time, verbal, non-verbal means, language attributes. The presence of these factors directly determines the linguistic position of the wish as a separate speech genre. The study of speech structures associated with the wishes of people in the Uzbek language, first of all, reveals the national characteristics of the speech behavior of the Uzbek people. After all, the religious wishes existing in the Uzbek language express the prayerfulness of the Uzbek people, based on the expression of positive desires and at the same time a tendency to negative desires, and through them its national character and characteristics are expressed. From this point of view, the issue of studying the linguistic aspects of the speech genre of tilak, in which the national characteristics of the Uzbek language are manifested, shows the relevance of the study. The article examines the specific speech purpose, composition and stylistic features of the speech genre “wish”; verbal, non-verbal means and language signs, features of functional changes depending on the speech situation are discussed.

**Keywords:** positive wishes, negative wishes, verbal wishes, written wishes. official style, journalistic style, scientific style, religious style, colloquial style, linguistic attributes

O‘zbek tilida tilak nutqiy janri murakkab funksional tabiatga ega nutqiy janrlardandir. U rasmiy, publitsistik, so‘zlashuv uslubidagi boshqa yirik nutqiy janrlar tarkibida kelib, kichik mikromatn shaklida voqe‘lanadi. Masalan, rasmiy-siyosiy, ijtimoiy-rasmiy va publitsistik, ilmiy nutqlarda nutqni boshlash va yakunlash qismlarida, so‘zlashuv nutqida esa duo, qadah so‘zi, qarg‘ish, qarg‘anish kabi boshqa nutqiy janrlar tarkibida ham keladi. Buni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin:



Adresantning o'zgaga tilak bildirishini ifodalovchi tilak nutqiy janrining barcha shakllari lingvistik jihatdan uslubiy xoslangan tarzda o'ziga xos matniy kompozitsion tuzilish asosida yuzaga kelib, matniy jihatdan monologik va dialogik, ichki va tashqi nutqqa oidligi bilan xarakterlanadi, og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tilak nutqiy janri monologik nutqda ifodalanganda, adresantning *iltijosi, xitobi, qarg'ishi* kabilarni ifodalaydi. Aksariyat hollarda salbiy tilaklar monologik shaklda ichki nutqda ifodalanishi bilan ham xarakterlanadi. Masalan:

**qarg'ish+tilak:** *U taksining ketidan tikilganча, sekin shivirladi: – Iloyim, balloning teshilsin... (Sh. Boshbekov. Charxpalak)* Keltirilgan misoldagi jumla shakliy jihatdan kirish so'z bilan murakkablashgan sodda gap orqali ifodalangan. U ikki qismdan iborat: kirish va asosiy qism. Jumlaning kirish qismi (*Iloyim*) orqali qarg'ish mazmuni, asosiy qism (*balloning teshilsin*) orqali esa tilak mazmuni yuzaga chiqqan. Natijada mazkur jumla **qarg'ish+tilak** mazmuniy modeliga ega bo'lgan.

**shart+tilak:** – *Robi! Bir qoshiq suvminan yutadigan okang borde! – dedi oshni guvaladek dumaloqlab og'ziga tiqarkan. – Sovchi qo'ysa, tegardim! – Voy ko'nglingga qo'tir jomashov. Kimsan akam o'zimgayam kerak! – dedim ichimda (Hoshimov, 2018).*

Tilak nutqiy janri dialogik nutqda ifodalanganda, adresant va adresatlarning bir-birlariga nutqiy ta'siri va javob reaksiyasi kuzatiladi. Masalan,

– *Oq yo'!*

– *Rahmat kabi.*

Til tizimida tilakka javob juftligi diniy va diniy bo'lmagan jumladan iborat bo'lishi mumkin. O'zbek lingvomadaniyatida adresant va adresatlar nutqida salomlashuv vaqtida qo'llaniluvchi *Assalomu alaykum – Va alaykum assalom* nutqiy juftligi adresant va adresatlarning bir-birlariga diniy shaklda tilak aytish va tilakni qabul qilish mazmunida shakllangan. Masalan,

*Krasnoyardagi uchrashuvda otasining uydan maktubni orziqib kutganini eshitgandayoq chap qulog'i yo'q odam bilan gaplashib qo'yishni niyat qilgan edi. Asadbek uning ismini bilmasdi. Yodida qolgani – onasi deyarli har kuni uning yo'lini poylardi. Ko'chada ko'rinishi bilan Asadbekni chaqirardi. «Bolam, xatchi amaking kelyaptilar, yugura qol, «adamlardan xat bormi?» deb so'ragin. Avval salom ber, xo'pmi?» derdi. Asadbek har safar unga peshvoz chiqib «assalomu alaykum» derdi. U esa qovoq uyub qarab qo'yardi, alik olmasdi. Asadbek onasiga «xatchi amaki salomimga alik olmayapti, endi salom bermayman» deganida, onasi «alok olmasa gunohi o'ziga, sen salom beraver», deb yalingan edi. Bir kuni xatchi salom bergan Asadbekning qulog'ini buradi: – Hoy, dushman bolasi, – dedi o'dag'aylab, – sen nega menga Xudoni gapirasan? Asadbek tushunmadi: – Qachon gapirdim? – dedi yig'lamsirab. – «Assalomu alaykum» deysanmi? Bu nima degani, bilasanmi? Xudodan sog'liq so'rayman, degani. Men sening xudo-pudoyingga ishonmayman, bildingmi! Men ateistman! Men boevoy kommunistman! Ikkinchi shunaqa desang, tilingni sug'urib olaman. Xat ham so'rama. Men dushman xatini tashiydigan ahmoq emasman! Asadbek onasiga bularni aytmadi. Onasi yo'lga chiqarganda itoat etaverdi, ammo xatchiga salom ham bermadi, «adamlardan xat bormi?» deb ham so'ramadi. O'sha damlarda u «nima uchun oyimning o'zlari so'ramaydilar», deb ko'p o'ylardi. Savoliga javobni keyinroq, ulg'aygach topdi. «Xatchi oyimga sasigan bo'lsa, so'rashga cho'chib qolgan ekanlar-da», degan ajrimga keldi. Chuvrindi ko'p o'tmay Soli ota bilan xatchini boshlab kirdi. Asadbek o'rnidan turib Soli ota bilan ko'rishdi. Xatchining uzatilgan qo'li muallaq qoldi. Asadbek unga o'tli nazarini qadadi (Malik, 2018).*

Tilak nutqiy janrida tilak adresati javobida adresatlarning yoshi va mavqeyi inobatga olinadi. Masalan, keksalar nutqidagi tilakka javob tariqasida ularning tilak nutqlariga emas, xatti-harakatlariga qo'shilish, xususan, duolarda fotihaga qo'shilish qabul qilingan.

Tilak nutqiy janri, asosan, tashqi nutq orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi: *Rahmat, qizim! Yuzimni yorug' qilding, – dedi ovozi titrab. – Qo'shganing bilan qo'sha qarigin, o'zingdan ko'paygin, bolam...* (Hoshimov, 2018).

Tilak nutqiy janri *og'zaki* va *yoзма* shaklda ifodalanadi. *Og'zaki* shakldagi tilaklar qamrovi keng bo'lib, u barcha uslubga xoslanganligi bilan ajralib turadi. Uning *og'zaki* rasmiy, *og'zaki*

norasmiy turlari mavjud. **Og‘zaki rasmiy** turlari rasmiy yozma tilaklarning so‘zlovchi nutqida ijro etilishidir. **Og‘zaki norasmiy** turlari esa turli ijtimoiy-maishiy hayotda yuz beradigan muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq shakllanadi. Masalan, *Xayrli tun!* jumlasini tungi xayrlashuv mazmunida, *Oq yo‘l! Safaringiz bexatar bo‘lsin!* kabi jumlar esa safarga chiqish oldidan bildiriladigan tilak turlaridir.

**Yozma tilaklar** rasmiy-siyosiy, ilmiy, badiiy, publitsistik, so‘zlashuv kabi turli uslublardagi nutqlar, tabrik, dastxat, ta‘ziyanoma, tashakkurnoma, rasmiy-siyosiy ma‘ruzaning ayrim turlaridan tortib rasmiy tashkillashtirilgan turli siyosiy, ijtimoiy tadbir, konferensiya, seminar-treninglardagi yozishmalarda, jumladan, tashakkurnoma, murojaatnoma kabilarda, turli ijtimoiy-maishiy xat yozishmalari, internet tarmog‘i bilan bog‘liq saytlar, kanallarda tashkil qilinadigan suhbatlarda, xususan, kommentariyalarda ham o‘z aksini topadi. Masalan:

1) **xat + tilak:** *«Hurmatli Humoyun Do‘stmuhammedov! Salom! Yozgan xatingizni oldim, bizlarni eslaganingiz uchun katta rahmat! Akamlarga ko‘rsatgan yaxshiligingiz va, umuman, uning holidan xabar olganingiz uchun ham hammamiz nomimizdan, buvamlar nomidan tashakkur! Sizga doimo sihat-salomatlik, ishlaringizga rivoj tilab... (Mirmuhsin. Ildizlar va yaproqlar)*

2) **dastxat+tilak:** *Inim Rayimjonning ishlariga ulkan zafarlar doimo yor bo‘lishini tilab (imzo) (Nurmonov, 2006).*

3) **bag‘ishlov+tilak:** *Ushbu risolani volidalik mehridan meni bahramand qila olmasdan, o‘tgan onam – Mussarbegim va mehribonlik timsoli bo‘lgan qaynonam – Mussarxonlar xotirasiga bag‘ishlayman. Yaratgan ularni jannatda O‘zining vasliga yetkazgani rost bo‘lsin. (Sh.Safarov, 2013)*

4) **o‘quv adabiyotlarining so‘z boshi qismida minnatdorchilik bildirish mazmunidagi tilak:** *Ushbu risolani yozishda beminnat yordam bergan ustozlarimizga Alloh Taolodan ajr-u mukofotlar tilaymiz. Alloh Taolo hammamizni oqibatimizni xayrli qilsin. Omin! (Xazrat Bahoviddin Naqshband, 2013) va hokazo.*

Til tizimida tilak nutqiy janri leksik-grammatik, sintaktik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi uslubiy shakllarga ega. Rasmiy-siyosiy, publitsistik, ilmiy, diniy, so‘zlashuv uslubiga xoslangan tilaklarda leksik jihatdan rasmiy va norasmiy so‘zlardan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiy uslubda to‘liq tugallangan gap shaklida, so‘zlashuv uslubida esa qisqartirilgan gaplardan foydalanish kabilar kuzatiladi. Masalan,

#### **Rasmiy uslubdagi tilak:**

*Hurmatli prokuratura xodimlari! Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka, qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash yo‘lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman (Sh.Mirziyoyev, Xalq so‘zi (8628)).*

**Ilmiy uslubdagi tilak:** *Himoyadan muvaffaqiyatli o‘tib olishingizga va yuqori baholanib, kelgusida malakali mutaxassis bo‘lib yetishishingizda, ilmiy faoliyatning keyingi bosqichlarini ham davom ettirib, kelajakda PhD, fan doktori ilmiy darajalarini olib, kuchli olim va olimalar bo‘lib yetishishingizga tilakdoshman. Hamisha sog‘ bo‘linglar! (Magistrantlarga tabrik nutqidan).*

**Diniy uslubdagi tilak:** a) **diniy ilmiy uslub:** *Ushbu risolani yozishda beminnat yordam bergan ustozlarimizga Alloh Taolodan ajr-u mukofotlar tilaymiz. Alloh Taolo hammamizni oqibatimizni hayrli qilsin. Omin. (So‘zboshidan) (Xazrat Bahoviddin Naqshband, 2013); b) **rasmiy diniy uslub:** *Inna lillahi va inna ilayhi roji‘yun (Internetdan) ta‘ziya tilagi, norasmiy diniy uslub: **Sher akani joylari jannatda bo‘lsin!** (Internetdan) kabi diniy uslubiy shakllarga tasnif qilish mumkin.**

**Publitsistik uslubdagi tilak:** *“Ma‘rifatning tinim bilmas ijodiy jamoasi bu yil “Mening tajribam” tanlovini e‘lon qilgani nur ustiga nur bo‘ldi. Tanlov doirasida darsga ijodiy yondashib kelayotgan ijodkor o‘quvchilarimizni tanib oldik. Ularning noan‘anaviy, innovatsion metodlari boshqa o‘quvchilarga ham asqotyapti. Buning uchun gazeta ijodkorlaridan minnatdor bo‘lgan holda, tanlovga kelgan yuzlab maqolalarni ko‘rib, saralab chiqishda ularga kuch-quvvat tilayman.*

So‘zim yakunida, respublikamizdagi barcha ta‘lim ahlini kirib kelgan yangi 2024-yil bilan qutlayman! Yangi yilda ham oilaviy baxt-u saodat barchamizga hamroh bo‘lsin! “Ma‘rifat”ning ziyosi barchamizning qalbimiz-u xonadonlarimizni nurafshon etaversin (R. Karimov. Ma‘rifat (9482)).

**So‘zlashuv uslubidagi tilak:** – Men nima ham deyman.... – Zalga qarab oldi-da, past vazmin tovushda qo‘shib qo‘ydi. – Urush tezroq bitsin. Jumla mo‘min qatori Ochilim ham eson-omon kelsin! Yaxshi to‘ylar qilaylik! (Hoshimov, 2018) va hokazo.

Tilak nutqiy janrining lingvistik jihatdan tildagi ifodasi **verbal, noverbal** va **lingvistik atributlar** yordamida ifodalanadi. Tilak nutqiy janrining verbal vositalari tilakning so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar va matn shaklida namoyon bo‘lishidir. Masalan:

**So‘z shaklida:** *Omad!*

**Gap shaklida:** *Omad yor bo‘lsin!*

**Matn shaklida:** *Qadrli ustozlar! Sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat va olib borayotgan sharaflil ishlarigizda ulkan omadlar tilayman!*

Til birliklarining noverbal vositalar orqali ifodalanishi masalasida o‘zbek tilshunosligida qator ishlar amalga oshirilgan (A.Nurmonov, 2006). Til tizimida tilak nutqiy janri tilak ma‘nosini anglatuvchi xatti-harakat va imo-ishoralar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida ikki qo‘lni yuqoriga qaratgan holda kaftlarni yozib, jipslashtirib, tilak aytish duo shaklidagi tilak mazmunini ifodalaydi. Masalan:

– *Omin, Yaratgan egam barcha bandai mo‘min qatori bizgayam tinchlik, xotirjamlik ato etsin, omin, Ollohu akbar!* – *Kampir yuziga fotiha tortib, ayolga yuzlandi* (Hoshimov, 2018). Xuddi shu mazmundagi stikerlar ham tilak nutqiy janrining lingvistik atributlariga kiradi. Shuni aytish kerakki, til tizimida tilakning turli noverbal xatti-harakatlar yoki lingvistik atributlar vositasida bajarilishi tilak nutqiy janri modusining o‘zgarishiga, ya‘ni boshqa nutqiy janr shakliga o‘tishini bildiradi. Masalan, ikki kaftini birlashtirgan holda qo‘lni yuqoriga ko‘tarib, tilak so‘zlarini aytish “duo” nutqiy janrini, qadah lingvistik atributi vositasida tilak aytish esa “qadah so‘zi” nutqiy janrini hosil qiladi. Shuni aytish kerakki, ijtimoiy-maishiy hayotda “non” lingvistik atributi vositasida tilak aytish odati jamoaviy (kollektiv) tilak aytishning lingvistik atributiga aylangan. Masalan, *Oqsoqol patirni boshi ustida baland ko‘tardi. – Xaloyiq! – dedi ovozi titrab. – Dunyoda nondan tabarruk narsa yo‘q! Nondan yuz o‘g‘irgan imondan yuz o‘giradi. Ke, o‘g‘lim, tishla! – U patirning ikki chetidan tutib turdi. Kimsan akam xiyol egilib bir chekkasini tishladi. – Barakalla, – dedi Oqsoqol. – Tuz nasibang uzilmasin! Ilohi omin! (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi)* Ushbu misoldan ko‘rinadiki, *tuz-nasibang uzilmasin* tilagi non vositasida ilohiy marosimning bir ko‘rinishini tashkil qilib, ijtimoiy-maishiy hayotda maishiy urf-odat sifatida shakllanmoqda.

Bundan tashqari avliyolar mozoridan niyat qilib, kokil olish, muqaddas buloqqa tanga tashlash, daraxtlarga ro‘molcha tugish, jonliq so‘yib, ehson qilish, turli diniy marosimlarda (mushkulkushod kabi) niyat va tilak aytib, paxtani suvga oqizish kabilar tilak nutqiy janrining diniy irimlar bilan bog‘liq **lingvistik atributlarini** yuzaga keltiradi. Tilak nutqiy janrining lingvistik atributlari murakkab ijtimoiy tuzilma sifatida pragmasemiotik xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, tilak lingvistik atributlarining semiotik-pragmatik jihatdan kimgadir yoki nimagadir yo‘naltirilganligi masalasi alohida tadqiqotlar obyektidir. Masalan, kokil olish ijtimoiy-maishiy odatida kokil farzand tilash belgisidir.

Demak, tilak nutqiy janrining verbal va noverbal vositalari hamda lingvistik atributlari masalasida alohida lingvistik va ekstralingvistik omillar tadqiqi zaruriyati mavjud.

### **Adabiyorlar ro‘yxati:**

1. Boshbekov, Sh. (2017). *Charxpalak*. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Hazrat Bahoviddin Naqshband. (2013). *Tarixiy va ma‘rifiy risola*. Toshkent: Sano-standart Nashriyoti.
3. Hoshimov, O.‘. (2018). *Ikki eshik orasi*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.

4. Malik, T. (2018). *Shaytanat* (Vol. 2). Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti.
5. Mirziyoyev, S.M. (2024, January 9). Prokuratura hodimlariga Prezident tabrigi. *Xalk so‘zi*, 5(8628).
6. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation of the generality-specificity dialectic in the vowel system of the Uzbek language. *Journal of Positive School Psychology*, 6(8), 1765-1771.
7. Nabieva, D.A., & Nurmanova, D. A. (2022). Neutralization of phonological oppositions in Uzbek. *Journal Name, Volume(Issue)*, pages.
8. Nurmanova, D.A. (2019). Text as a universal form of representation of "part from the whole". *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04(72), 582-585.
9. Nurmanova, D.A. (2019). Текст, как универсальная форма репрезентации "части от целого". *Theoretical & Applied Science*, (4), 582-585.
10. Nurmanova, D.A. (2021). Neutralization of consonant opposition in Anlaut of the Uzbek language. *Academicia Globe*, 2(6), 347-354.
11. Nurmanova, D.A. (2023). Neutralization of oppositions in the paradigm of cases in the Uzbek language. *Global Scientific Review*, 21, 83-89.
12. Nurmonov, A. (2006). *Struktur tilshunoslik: Ildizlari va yo‘nalishlari*. Andijon.
13. Pulatjonovna, S.D. (2024). Lingvosemiotic content of linguistic features of the speech genre "Wish". *Global Scientific Review*, 26, 96-99.
14. Pulatjonovna, S.D. (2024). Positive and negative wishes as a social ritual. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(7), 159–162. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/3231>
15. Qodiriy, A. (2017). *O‘tgan Kunlar*. Toshkent: Info Capital Group.
16. Safarov, Sh. (2013). *Semantika*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti.
17. Sayfutdinova, D. (2024). Ijobiy tilaklarning funksional semantik tabiatiga oid ayrim mulohazalar. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(3), 155-158.
18. Sayfutdinova, D. (2024). Ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlari. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 504-508.
19. Sayfutdinova, D. (2024). Linguistic features of the speech genre "Wish" in the official political style. *Builders of the Future*, 4(04), 160-164.
20. Sayfutdinova, D.P. (2024). Tilak nutqiy janrida adresat nutqining verbal va noverbal vositalar orqali ifodalanishi. *ББК 74+81я431 П78*, 43.